




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



+998335668868

<https://innoworld.net>



zenodo



OpenAIRE

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



SUN'IY INTELLEKT VA REGTECH TEXNOLOGIYALARINING ISLOM MOLIYA TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDAGI O'RNI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Samatov Doniyor, Kuchkarov Kamron

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, talaba

Annotatsiya. Maqolada sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalarining islom moliya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi roli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shariatga asoslangan moliya prinsiplari, shaffoflik va hisobdorlik talablarini zamonaviy raqamli nazorat mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida moliya tizimini raqamlashtirish, islom moliya institutlarini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarining mazkur sohadagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalarini joriy etish moliya tizimining barqarorligi va ishonchliligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, RegTech, islom moliyasi, korrupsiyaga qarshi kurash, shariat boshqaruvi, raqamli nazorat

Kirish. So'nggi yillarda global moliya tizimida raqamli texnologiyalar tezkor rivojlandi va nazorat hamda hisobdorlik mexanizmlarini tubdan o'zgartirdi. Islom moliya tizimi adolat, shaffoflik va halollik tamoyillariga asoslangan bo'lsa-da, amaliyotda inson omiliga bog'liq korrupsion xavflar saqlanib qoladi. Murabaha, mushoraka va mudaraba shartnomalarida aktivlarni baholash, qaror qabul qilish va hisobot yuritish jarayonlarida shaffoflik yetarli bo'lmaganda korrupsiya yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni barcha sohalarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashni belgiladi. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt va RegTech muhim vosita sifatida e'tiborga olinadi.

Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish ham dolzarb masala sifatida qaraladi. Islom moliyasi shariatga mos moliyaviy bitimlarni va bank xizmatlarini taqdim etib iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalari bilan uyg'unlashganda korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm yaratadi.

2 Nazariy asoslar

2.1 Islom moliyasi tushunchasi va prinsiplari

Islom moliyasi Qur'on va Sunnatga asoslangan bo'lib ribo (foiz), gharar (noaniqlik) va maysir (qimor) qat'iyon taqiqlanadi. Uning maqsadi real



iqtisodiyot bilan bog'langan adolatli va barqaror moliyaviy munosabatlarni shakllantirishdir. Asosiy moliyaviy bitimlar quyidagilardir:

- **Sarf** – moddiy qiymatga ega mahsulotlarni bir-biriga ayirboshlash;
- **Murobaha** – mahsulot tannarxini belgilab ma'lum muddatda xaridorga sotish;
- **Mudoraba** – sherikchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va foyda/zararni kelishilgan nisbatda taqsimlash;
- **Salam** – mahsulotni keyinroq yetkazish sharti bilan oldindan to'lovni amalga oshirish;
- **Istisna** – ishlab chiqarilmagan mahsulotni kelishilgan shartlarda sotish;
- **Mushoraka** – mulkiy sherikchilik, foyda va zarar ulushlarga muvofiq taqsimlanadi.

2.2 Islom banklari va an'anaviy banklar farqi

Islom banklarida foyda yoki zarar investor va tadbirkor o'rtasida kelishilgan ulushlarda taqsimlanadi, foiz (ribo) qat'iyan taqiqlanadi. Bank daromadi tadbirkorning foydasiga bog'liq bo'lib, kredit bo'yicha kechikkan har bir kun uchun jarima mavjud emas va omonat pullari foiz bilan kafolatlanmaydi.

An'anaviy banklarda esa investor oldindan foiz stavkasini biladi, kreditni foiz bilan qaytarish sharti mavjud, kechikkan muddat uchun qo'shimcha jarima to'lanadi va omonat pullari foiz bilan kafolatlanadi.

Quyidagi jadval islom banklari va an'anaviy banklar farqlarini aniq ko'rsatadi:

1-jadval. Islom banklari va an'anaviy banklar farqi

Xususiyat	Islom banklari	An'anaviy banklar
Foyda/zarar taqsimoti	Investor va tadbirkor o'rtasida kelishilgan ulushlarda	Bankga qarz foiz bilan to'lanadi
Foiz (ribo)	Qat'iyan taqiqlanadi	Foiz asosiy daromad manbai
Kechikkan muddat	Qo'shimcha jarima yo'q	Har kun uchun foiz/penalti
Omonat daromadi	Foiz kafolatlanmaydi, bank daromadiga bog'liq	Belgilangan foiz kafolatlanadi

Ushbu jadval orqali islom banklari va an'anaviy banklarning asosiy farqlari aniq ko'rinadi, bu esa islom moliyasi tizimini tushunishda va uning korrupsiyaga qarshi samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3 Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot tizimli va mantiqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usullariga asoslanadi. Ushbu metodlar yordamida O'zbekiston tajribasi, islom moliyasidagi bitimlar hamda sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalarining samaradorligi o'rganildi.

4 Sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalari

4.1 AI texnologiyalari. Moliyaviy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, shubhali operatsiyalarni aniqlash, risklarni oldindan baholash inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish imkonini beradi

4.2 RegTech texnologiyalari. Me'yoriy va shariat talablarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish hisobotlarni soddalashtirish, komplaens jarayonlarini kuchaytirish korrupsiyaga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

Natijalar va O'zbekiston tajribasi. Sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalari korrupsion holatlarni erta aniqlashni ta'minlaydi. Moliyaviy nazorat samaradorligini oshiradi Moliyaviy institutlarga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

O'zbekiston sharoitida raqamlashtirish va islom moliyasini rivojlantirish siyosati sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish uchun qulay institutsional muhit yaratadi.

Muhokama. Sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalarining islom moliyasida qo'llanilishi shariatga mos keladigan samarali nazorat mexanizmini yaratadi. Shu bilan birga tizimga yangi bitimlar va moliyaviy instrumentlarni joriy etish ham mumkin. Islom banklari orqali moliyalashtirish hajmi oshadi, naqd pul aylanmasi kuchayadi va inflatsiya pasayadi

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki malakali kadrlar tayyorlash, tijorat banklari qoshida islomiy xizmatlar darchasi tashkil etish, mavjud kadrlarni amaliyotga yuborish va Shariat kengashlarini tashkil etish tizimning barqarorligi va korrupsiyaga qarshi samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va RegTech texnologiyalari islom moliya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita hisoblanadi. Ularni joriy etish shariat tamoyillari, milliy qonunchilik va institutsional boshqaruv mexanizmlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi zarur. O'zbekiston sharoitida qabul qilingan farmon va qarorlar ushbu texnologiyalarni amaliyotga tatbiq qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova, N 2021 Islom moliyasi asoslari Toshkent O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
2. Ahmed, S 2022 Islamic Banking and Finance Journal of Monetary Economics 24 157–167
3. Akhmadjonov, O Abdullaev, A et al 2022 Islamic Finance Scientific Progress 3 2 48–50
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-sonli Farmoni.
7. Ravshanbek, O'ralov et al 2022 Islom moliyasi va bank tizimi Scientific Progress 3 2 386–390